



ANDIJON VILOYATIDAGI KORXONA VA TASHKILOTLAR DEMOGRAFIYASI BO‘YICHA MA’LUMOT

2022- yil 1- aprel holatiga ko‘ra
(fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari)

Har qanday mamlakatning milliy iqtisodiy majmuasida markaziy o'rinni korxonalar egallaydi, chunki aynan ular milliy daromadni yaratadi, bir vaqtning o'zida ishlab chiqaruvchi vazifasini bajaradi hamda o'zini o'zi ta'minlash va mustaqillikka asoslangan takror ishlab chiqarish jarayonini amalga oshiradi.

Ma'lumki, yaratilgan yalpi milliy mahsulot hajmi, jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi, mamlakat aholisining moddiy va ma'naviy manfaatlarini qondirish darajasi mustaqil korxonalarning muvaffaqiyatlariga bog'liq.


Korxonaning foydalilik darajasi minimal ishlab chiqarish xarajatlari bilan fan va texnika yutuqlaridan foydalangan holda eng qulay sharoitlarni va shu bilan birga yuqori sifatli mahsulotlarni samarali ishlab chiqarishga imkon yaratishidir, boshqacha qilib aytganda, korxona bu – iqtisodiyotni tashkil qilishning shunday shakli bo'lib, u yerda yakka iste'molchi va ishlab chiqaruvchi uchta yirik iqtisodiy muammolarni hal qilish uchun bozor orqali o'zaro aloqada bo'ladi: nima, qanday va kim uchun ishlab chiqarish kerak? Shu bilan birga, tadbirkorlarning va tashkilotlarning birortasi ongli ravishda ushbu iqtisodiy muammolarning uchligini hal qilish bilan shug'ullanmaydi (bozor elementida har kim ularni individual darajada hal qiladi).

Ma'lumki, bozor tizimida hamma narsa o'z narxiga ega. Bozor iqtisodiyoti insonlar va korxonalarni narxlar va bozorlar tizimi orqali ongsiz ravishda muvofiqlashtirishga xizmat qiladi. Agar bozorlarning barcha xilma-xilligini oladigan bo'lsak, unda o'z-o'zidan narxlar va ishlab chiqarish muvozanatini sinov va xatolar orqali ta'minlaydigan keng tizimga ega bo'lamiz.

O'zbekistondagi korxonalar faoliyati O'zbekiston Respublikasining soliq, bojxona, valyuta, moliya, investitsiya va boshqa qonun hujjatlarini o'z ichiga olgan qonunchiligi bilan tartibga solinib, mamlakatimizdagi korxonalarning ayrim xususiyatlarini, jihatlarini va faoliyatini tartibga soladi.

Korxona va tashkilotlar to'g'risida umumiy ma'lumotlar


fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari, 1-aprel holatiga ko'ra, birlikda




Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar

2022- yil yanvar-mart holatiga ko'ra


Yillar kesimida soni



Yillar kesimida o'sish sur'ati



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida




Hududlar kesimida

Andijon sh.	324	Xo'jaobod t.	135
Shahrixon t.	187	Jalaquduq t.	116
Andijon t.	182	Oltinko'l t.	109
Asaka t.	175	Marhamat t.	104
Izboskan t.	153	Bo'ston t.	59
Baliqchi t.	146	Buloqboshi t.	47
Qo'rg'ontepa t.	142	Ulug'nor t.	37
Paxtaobod t.	141	Xonobod sh.	27

Joriy yilning yanvar-mart oylarida yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni 2 084 tani tashkil etdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan bu ko'rsatkich 485 taga ko'p va 130,3 foizni tashkil etdi.

Hududlar kesimida o'tgan yilga nisbatan yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar Shahrixon (86 ta), Qo'rg'ontepa (81 ta), Baliqchi (70 ta), Xo'jaobod (70 ta), Izboskan (67 ta), Marhamat (56 ta) va Jalaquduq (51 ta) tumanlarida sezilarli o'sish kuzatildi.

Yillar kesimida soni



Yillar kesimida o'sish sur'ati



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida

3 614
143,9 %



Qishloq, o'rmon
va baliqchilik xo'jaligi

9 512

109,6 %



Sanoat

3 281

102,6 %



Qurilish

12 143

111,2 %



Savdo

1 385

102,4 %



Tashish
va saqlash

1 944

104,4 %



Yashash va ovqatlanish
bo'yicha xizmatlar

583

102,3 %



Axborot va aloqa

1 035

112,5 %



Sog'liqni saqlash va
ijtimoiy xizmatlar
ko'rsatish

8 646

104,3 %



Boshqa turlar

Hududlar kesimida

Andijon sh. 12 518

Asaka t. 3 983

Shahrixon t. 2 940

Andijon t. 2 884

Baliqchi t. 2 224

Qo'rg'ontepa t. 2 106

Izboskan t. 2 089

Oltinko'l t. 2 061

Marhamat t. 1 909

Xo'jaobod t. 1 801

Paxtaobod t. 1 768

Jalaquduq t. 1 755

Buloqboshi t. 1 267

Bo'ston t. 1 130

Xonobod sh. 872


Ulug'nor t. 836

2022- yil 1- aprel holatiga ko'ra faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni o'tgan yilning mos davriga (38 300 ta) nisbatan 3 843 taga oshib, o'sish sur'ati 110,0 foizni tashkil etdi.

Hududlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar sonining o'tgan yilga nisbatan sezilarli o'sishi Andijon (379 ta), Asaka (371 ta), Izboskan (352 ta), Baliqchi (345 ta) va Marhamat (343 ta) tumanlarida qayd etildi.

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimi bo'yicha o'tgan yilga nisbatan eng yuqori ko'rsatkich savdo sohasida – 1 224 ta, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 1 102 ta, sanoatda – 837 taga to'g'ri kelib, axborot va aloqa sohasida esa boshqa sohalarga nisbatan kamroq – 13 tani tashkil etdi.

Yillar kesimida soni



Yillar kesimida o'sish sur'ati

2022- yilning
2020- yilga
nisbati2022- yilning
2021- yilga
nisbati

Hududlar kesimida

Andijon sh.	306
Shahrixon t.	183
Andijon t.	176
Asaka t.	162
Izboskan t.	150
Baliqchi t.	143
Qo'rg'on tepa t.	139
Paxtaobod t.	138
Xo'jaobod t.	129
Jalaquduq t.	114
Oltinko'l t.	104
Marhamat t.	102
Bo'ston t.	55
Buloqboshi t.	43
Ulug'nor t.	35
Xonobod sh.	25

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida




Tahlillar shuni ko'rsatdiki, so'nggi uch yil ichida viloyatimizdagi tadbirkorlik subyektlarining taxminan 50 foizi yangi tashkil etilgan.


Hududlar kesimida yangi tashkil etilgan tadbirkorlik subyektlari sonining o'tgan yilga nisbatan Shahrixon tumanida (84 taga), Qo'rg'on tepa tumanida (79 taga), Baliqchi tumanida (73 taga), Xo'jaobod tumanida (68 taga) va Izboskan tumanida (66 taga) sezilarli o'sishi kuzatildi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'tgan yilga nisbatan solishtirilganda eng yuqori o'sish qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida (801 taga) hamda sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish sohasida (5 taga) o'sish kuzatildi.

Yillar kesimida soni



Yillar kesimida o'sish sur'ati



2022- yil 1- aprel holatiga ko'ra faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning salmoqli qismi - 36 806 tasi yoki 87,3 foizi tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri kelib, o'sish sur'atlari o'tgan yilning shu davriga nisbatan 110,3 foizni tashkil etdi.

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida eng yuqori o'sish qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi (144,2 foiz), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish (112,7 foiz), savdo (111,2 foiz), sanoat (109,6 foiz) hamda yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (104,4 foiz) sohalarida kuzatilgan bo'lsa, hududlar kesimida esa Xo'jaobod (127,2 foiz), Marhamat (123,2 foiz), Izboskan (122,5 foiz), Baliqchi (122,3 foiz), Jalaquduq (122,2 foiz) va Ulug'nor (121,8 foiz) tumanlariga to'g'ri keldi.


Hududlar kesimida

Andijon sh.	11 374
Asaka t.	3 550
Andijon t.	2 576
Shahrixon t.	2 494
Baliqchi t.	1 922
Izboskan t.	1 808
Qo'rg'ontepa t.	1 763
Oltinko'l t.	1 757
Marhamat t.	1 632
Xo'jaobod t.	1 579
Paxtaobod t.	1 500
Jalaquduq t.	1 454
Buloqboshi t.	1 037
Bo'ston t.	920
Xonobod sh.	764
Ulug'nor t.	676


Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Yillar kesimida soni



Yillar kesimida o'sish sur'ati



Hududlar kesimida

Andijon sh.	306	Xo'jaobod t.	129
Shahrixon t.	183	Jalaquduq t.	114
Andijon t.	176	Oltinko'l t.	104
Asaka t.	162	Marhamat t.	102
Izboskan t.	150	Bo'ston t.	55
Baliqchi t.	143	Buloqboshi t.	43
Qo'rg'ontepa t.	139	Ulug'nor t.	35
Paxtaobod t.	138	Xonobod sh.	25

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida

Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi 923	Sanoat 266	Qurilish 85
Savdo 494	Tashish va saqlash 42	Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar 44
Axborot va aloqa 29	Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish 40	Boshqa turlar 81

Ma'lumki, viloyatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik jadal rivojlanmoqda. Shuningdek, mahalliy tadbirkorlar va investorlar uchun bir qator qulay huquqiy va iqtisodiy sharoitlar yaratilib kelinmoqda.


Pandemiya davrida tadbirkorlik subyektlari davlat iqtisodiyotining barqaror ishlashiga munosib hissasini qo'shib kelayotganligini alohida ta'kidlash lozim.

2022- yil yanvar-mart oylarida yangi tashkil etilgan kichik biznes subyektlari sonining o'sish sur'ati 2018- yilning mos davriga nisbatan 2,2 martaga oshgan.


Yillar kesimida soni



Yillar kesimida o'sish sur'ati



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Hududlar kesimida

Andijon sh.	11 297	Marhamat t.	1 625
Asaka t.	3 538	Xo'jaobod t.	1 571
Andijon t.	2 564	Paxtaobod t.	1 493
Shahrixon t.	2 490	Jalaquduq t.	1 448
Baliqchi t.	1 919	Buloqboshi t.	1 036
Izboskan t.	1 806	Bo'ston t.	916
Qo'rg'ontepa t.	1 757	Xonobod sh.	759
Oltinko'l t.	1 751	Ulug'nor t.	671

2022- yil 1- aprel holatiga ko'ra faoliyat ko'rsatayotgan kichik biznes subyektlari soni 2021- yilning mos davriga nisbatan 3 424 taga ko'paygan va o'sish sur'ati 110,3 foizni tashkil etdi.


Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida eng yuqori o'sish qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida (144,1 foiz), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda (112,5 foiz), savdoda (111,2 foiz) hamda sanoat (109,6 foiz) sohalarida kuzatilgan bo'lsa, hududlar kesimida Xo'jaobod (127,1 foiz), Marhamat (123,0 foiz), Izboskan (122,7 foiz), Baliqchi (122,3 foiz), Jalaquduq (122,1 foiz) va Ulug'nor (121,8 foiz) tumanlariga to'g'ri keldi.

2- bo'lim. Korxona va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ma'lumotlar


Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar

2022- yil 1- aprel holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni



Yillar kesimida o'sish sur'ati



Hududlar kesimida

Dehqonchilik,
va chorvachilik,
ovchilik
va bu sohalarda
xizmat ko'rsatish

3 416

17

O'rmonchilik
va yog'och
tayyorlash

Baliq ovlash
va akvakultura


181

Asaka t.	471
Andijon sh.	309
Shahrixon t.	302
Qo'rg'ontepa t.	292
Izboskan t.	266
Andijon t.	266
Baliqchi t.	262
Paxtaobod t.	251
Marhamat t.	214
Jalaquduq t.	211
Oltinko'l t.	175
Ulug'nor t.	157
Bo'ston t.	154
Xo'jaobod t.	141
Buloqboshi t.	96
Xonobod sh.	47


Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi sohasi koronavirus pandemiyasi davrida iqtisodiyot tarmoqlari orasidagi eng kam zarar ko'rib faoliyat ko'rsatayotgan tarmoqlardan biridir.

Hukumatimiz tomonidan ushbu sohaga qaratilayotgan alohida e'tibor sababli, faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni 2019- yilning mos davriga nisbatan qariyb ikki baravar ko'paydi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan esa 1 102 taga oshgan.

Yillar kesimida soni




Yillar kesimida o'sish sur'ati



Hududlar kesimida

Andijon sh.	2 994
Asaka t.	998
Andijon t.	819
Shahrixon t.	708
Xo'jaobod t.	538
Oltinko'l t.	449
Baliqchi t.	430
Qo'rg'ontepa t.	381
Izboskan t.	368
Jalaquduq t.	367
Marhamat t.	323
Paxtaobod t.	295
Buloqboshi t.	287
Bo'ston t.	210
Xonobod sh.	209
Ulug'nor t.	136



Ishlab chiqarish sanoati



Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash




Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish


Qayd etish kerakki, sanoat tarmog'i iqtisodiy tarmoqlar ichida eng yuqori salohiyatga ega bo'lgan tarmoqlardan hisoblanadi. Shunday qilib, so'nggi uch yil ichida milliy iqtisodiyotda faoliyat ko'rsatayotgan sanoat korxonalari sonining o'sish sur'ati 159,4 foizni tashkil etdi.

Sanoat korxonalari soni jami korxona va tashkilotlarning 22,6 foiz ulushini tashkil etdi. Shundan – 96,5 foizini ishlab chiqarish sanoati (o'tgan yilga nisbatan o'sish 110,3 %), 1,5 foizini tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash (o'sish 100,7 %), 0,3 foizini elektr, gaz bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash (75,6 % ni) va 1,7 foizini suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish (95,8 % ni) tashkil etgan.


Yillar kesimida soni



Yillar kesimida o'sish sur'ati



Hududlar kesimida



Bino va inshootlar qurish

2 004
100,8 %

Fuqarolik obyektlarini qurish

292
119,2 %

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

985
102,0 %

Qurilish sohasi mamlakatimiz milliy iqtisodiyotining barqaror o'sishiga o'zining munosib hissasini qo'shib kelayotgan sohalardan hisoblanadi. Ushbu sohada faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning soni 2020- yilning mos davri bilan solishtirilganda o'sish sur'ati 16,8 foizga oshgan.


Qurilish sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni ushbu sohaning quyidagi yo'nalishlari kesimida qarganda:

binolar va inshootlar qurish yo'nalishi 61,1 foiz ulushni tashkil etib, o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 100,8 foizni tashkil etadi;


fuqarolik obyektlarini qurish yo'nalishi 8,9 foiz ulushni tashkil etib, o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 19,2 foizga oshgan;

ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo'nalishi 30,0 foiz ulushni va 102,0 foiz o'sish sur'atini tashkil etdi.

Yillar kesimida soni



Yillar kesimida o'sish sur'ati



Hududlar kesimida

Andijon sh.	3 362
Asaka t.	1 089
Shahrixon t.	787
Andijon t.	775
Baliqchi t.	759
Oltinko'l t.	704
Izboskan t.	689
Qo'rg'ontepa t.	644
Paxtaobod t.	613
Marhamat t.	568
Jalaquduq t.	556
Xo'jaobod t.	553
Buloqboshi t.	340
Bo'ston t.	279
Xonobod sh.	215
Ulug'nor t.	210

Avtomobil va
mototsikllar
savdosidan tashqari
chakana savdo

7 843
109,2 %

Avtomobil va
mototsikllar
savdosidan tashqari
ulgurji savdo

3 385
114,3 %


Avtomobil va
mototsikllarning ulgurji
va chakana savdosi va
ularni ta'mirlash

915
118,4 %


Savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar sonini ushbu sohaning quyidagi yo'nalishlari kesimida qaralganda:

- avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo yo'nalishida 64,6 foiz ulushni tashkil etgan bo'lib, 2021- yilning mos davri bilan solishtirilganda 9,2 foizga o'sgan;
- avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdo yo'nalishida 27,9 foiz ulushni tashkil etib, 14,3 foizga oshgan;
- avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta'mirlash yo'nalishida 7,5 foiz ulushni tashkil etib, 18,4 foizga o'sgan.

Yillar kesimida soni



Yillar kesimida o'sish sur'ati



Hududlar kesimida

Andijon sh.	765
Asaka t.	173
Andijon t.	137
Xonobod sh.	107
Shahrixon t.	96
Oltinko'l t.	82
Qo'rg'ontepa t.	81
Ulug'nor t.	72
Izboskan t.	71
Paxtaobod t.	64
Jalaquduq t.	58
Xo'jaobod t.	56
Buloqboshi t.	53
Baliqchi t.	50
Marhamat t.	42
Bo'ston t.	37

Yashash bo'yicha xizmatlar

Oziq- ovqat va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar




2022- yil 1- aprel holatiga ko'ra yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni 2020- yilning mos davri bilan solishtirilganda 14,9 foizga oshgan bo'lib, viloyatdagi jami faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning 4,6 foiz ulushini tashkil etdi.


Mehmonxonalar, turistik oromgohlar, dam olish va ko'ngilochar parklar va shaharchalar yashash bo'yicha xizmatlar yo'nalishining asosiy faoliyatlari hisoblanib, 2022- yil 1- aprel holatiga ko'ra, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning 7,0 foiz ulushini tashkil etdi.

Restoran, oziq-ovqat mahsulotlarini yetkazish va buyurtma bo'yicha ovqat va ichimliklarni yetkazish faoliyatlari oziq-ovqat va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar yo'nalishining asosi hisoblanib, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasining 93,0 foiz ulushini tashkil etdi.

Yillar kesimida soni



Yillar kesimida o'sish sur'ati



Hududlar kesimida

Andijon sh.	214
Asaka t.	49
Marhamat t.	42
Baliqchi t.	41
Shahrixon t.	36
Xo'jaobod t.	35
Buloqboshi t.	32
Qo'rg'ontepa t.	25
Andijon t.	24
Oltinko'l t.	18
Paxtaobod t.	16
Jalaquduq t.	16
Izboskan t.	13
Xonobod sh.	11
Ulug'nor t.	6
Bo'ston t.	5



Nashriyotchilik faoliyati



Kino-videofilmlar, televizion dasturlar, fonogrammalar va musiqali yozuvlarni ishlab chiqish



Dasturlar yaratish bo'yicha faoliyat va teleko'rsatuv va radioeshittirish



Aloqa



Kompyuter dasturlashtirish, maslahat berish va boshqa yordamchi xizmatlar




Axborot xizmati ko'rsatish sohasidagi faoliyat

2022- yil 1- aprel holatiga ko'ra nashriyotchilik faoliyati, kino-videofilmlar, televizion dasturlar, fonogrammalar va musiqali yozuvlarni ishlab chiqish yo'nalishlarida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni axborot va aloqa sohasining 12,9 foizini tashkil etib, 2021- yilning mos davriga nisbatan 100,0 foizni tashkil etgan.


Dasturlar yaratish bo'yicha faoliyat va teleko'rsatuv va radioeshittirishlar hamda aloqa yo'nalishlaridagi korxonalar soni axborot va aloqa sohasining 49,0 foizini tashkil etib, 2021- yilning mos davriga nisbatan 10,0 foizga oshgan.

Kompyuter dasturlashtirish, maslahat berish va boshqa yordamchi xizmatlar hamda axborot xizmati ko'rsatish sohasidagi faoliyat yo'nalishlaridagi korxonalar soni axborot va aloqa sohasidagi korxona va tashkilotlarning 38,1 foizini tashkil etib, 2021- yilning mos davriga nisbatan 94,5 foizni tashkil etgan.

Yillar kesimida soni



Yillar kesimida o'sish sur'ati



Hududlar kesimida

Andijon sh.	370
Asaka t.	87
Shahrixon t.	83
Andijon t.	68
Izboskan t.	58
Baliqchi t.	50
Marhamat t.	47
Oltinko'l t.	46
Qo'rg'ontepa t.	43
Xo'jaobod t.	42
Paxtaobod t.	40
Jalaquduq t.	37
Buloqboshi t.	36
Xonobod sh.	15
Bo'ston t.	8
Ulug'nor t.	5

Sog'liqni saqlash sohasidagi faoliyat

1 006
112,3 %

Yashash uchun joy bilan ta'minlangan holda parvarishlash

20
117,6 %

Yashash uchun joy bilan ta'minlanmagan holda ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish


9
128,6 %

2022- yil 1- aprel holatiga ko'ra, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning 97,2 foizini sog'liqni saqlash sohasi yo'nalishidagi korxonalar tashkil etib, 2021- yilning mos davriga nisbatan 12,3 foizga o'sgan.


Yashash uchun joy bilan ta'minlangan holda parvarishlash yo'nalishida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish sohasining 1,9 foizini tashkil etib, 2021- yilning mos davriga nisbatan 117,6 foizni tashkil etgan.

Yashash uchun joy bilan ta'minlanmagan holda ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish yo'nalishidagi korxonalar soni ushbu sohaning 0,9 foizini tashkil etib, 2021- yilning mos davri bilan solishtirilganda 128,6 foizni tashkil etgan.

Yillar kesimida soni



Yillar kesimida o'sish sur'ati



Hududlar kesimida

Andijon sh.	573
Asaka t.	132
Andijon t.	93
Shahrixon t.	75
Qo'rg'ontepa t.	64
Izboskan t.	55
Baliqchi t.	53
Oltinko'l t.	49
Xo'jaobod t.	49
Marhamat t.	47
Paxtaobod t.	45
Bo'ston t.	43
Jalaquduq t.	39
Buloqboshi t.	37
Xonobod sh.	16
Ulug'nor t.	15

Quruqlikdagi va quvur transporti

1 060
105,1 %

Ombor xo'jaligi va yordamchi transport faoliyati

300
94,3 %

Pochta va kuryerlik faoliyati

24
104,3 %

Havo transporti

1
100,0 %

2022- yil 1- aprel holatiga ko'ra, tashish va saqlash xizmatlari sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar jami viloyatdagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonaning 3,3 foiz ulushini tashkil etdi.

Tashish va saqlash xizmatlari sohasining quruqlikdagi va quvur transporti yo'nalishida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlari soni 2021- yilning mos davri bilan solishtirilganda 5,1 foizga oshgan. Pochta va kuryerlik yo'nalishida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni 2021- yilning mos davri bilan solishtirilganda 104,3 foizni, havo transporti yo'nalishida 100,0 foizni hamda ombor xo'jaligi va yordamchi transport yo'nalishida 94,2 foizni tashkil etgan.


Tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha umumiy ma'lumot

2022- yil 1- aprel holatiga ko'ra, birlikda

Tadbirkorlik subyektlari soni




Tadbirkorlik subyektlarining jamiga nisbatan ulushi



Tashkiliy-huquqiy shakl deganda, subyekt tomonidan mulkning birlashtirilishi (shakllantirilishi) va undan foydalanish usuli hamda uning bundan kelib chiquvchi huquqiy holati va faoliyat maqsadi tushuniladi. Shuningdek, quyidagilar bilan bog'liq masalalarni hal qilishda foydalaniladi:

- xo'jalik yurituvchi subyektlar to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olgan registr, reyestr va kadastrlarning axborot resurslarini shakllantirish;
- tashkiliy-huquqiy shakllar doirasida statistika ma'lumotlarini ishlab chiqish;
- idoralararo axborot almashinishini ta'minlash;
- ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni va hodisalarni tahlil qilish va prognozlashtirish.


Yillar kesimida soni



Yillar kesimida o'sish sur'ati



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida




Hududlar kesimida


Andijon sh.	289	Marhamat t.	98
Shahrixon t.	163	Paxtaobod t.	98
Andijon t.	153	Oltinko'l t.	87
Asaka t.	143	Jalaquduq t.	86
Izboskan t.	142	Bo'ston t.	46
Qo'rg'ontepa t.	128	Buloqboshi t.	41
Baliqchi t.	128	Ulug'nor t.	34
Xo'jaobod t.	107	Xonobod sh.	24

Bir yoki bir necha shaxs tomonidan ta'sis etilgan, ustav fondi (ustav kapitali) ta'sis hujjatlari bilan belgilangan miqdorda ulushlarga bo'lingan xo'jalik jamiyati mas'uliyati cheklangan jamiyat deb hisoblanadi. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning ishtirokchilari uning majburiyatlari bo'yicha javobgar bo'lmaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog'liq zararlar uchun o'zlari qo'shgan hissalar qiymati doirasida javobgar bo'ladilar. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning o'z hissasini to'la qo'shmagan ishtirokchilari, jamiyat majburiyatlari bo'yicha har bir ishtirokchi hissasining to'lanmagan qismi qiymati doirasida solidar javobgar bo'ladilar.

Yillar kesimida soni



Yillar kesimida o'sish sur'ati



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida

2 734
163,2 %



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi

7 208
114,4 %



Sanoat

2 896
107,0 %



Qurilish

9 585
115,9 %



Savdo

1 272
103,5 %



Tashish va saqlash

1 322
110,1 %



Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar

459
112,5 %



Axborot va aloqa

773
117,1 %



Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish

2 670
104,5 %



Boshqa turlar

Hududlar kesimida

Andijon sh. 9 173

Asaka t. 2 235

Andijon t. 2 026

Shahrixon t. 1 990

Izboskan t. 1 561

Baliqchi t. 1 486

Oltinko'l t. 1 407

Marhamat t. 1 380

Xo'jaobod t. 1 358

Qo'rg'ontepa t. 1 293

Paxtaobod t. 1 264

Jalaquduq t. 1 191

Buloqboshi t. 820

Xonobod sh. 617

Ulug'nor t. 575

Bo'ston t. 543


2022- yil 1- aprel holatiga ko'ra faoliyat yuritayotgan 36 806 ta tijorat korxonalari va tashkilotlaridan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar 28 919 tani tashkil etdi. Shunga asoslanib, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar viloyatimizdagi eng keng tarqalgan tadbirkorlik faoliyatining shakli ekanligi haqida xulosa qilishimiz mumkin.

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaranganda, o'sish qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi (163,2 foiz), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish (117,1 foiz), savdo (115,9 foiz), sanoat (114,4 foiz), axborot va aloqa (112,5 foiz), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (110,1 foiz) sohalarida kuzatilgan bo'lib, hududlar kesimida esa Baliqchi (136,1 foiz), Marhamat (132,4 foiz), Xonobod shahri (126,4 foiz), Ulug'nor (126,4 foiz), Bo'ston (125,4 foiz) va Izboskan (125,4 foiz) tumanlarida o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish kuzatilgan.


Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Yillar kesimida soni



Yillar kesimida o'sish sur'ati




Hududlar kesimida

Andijon sh.	1 206	Oltinko'l t.	179
Asaka t.	722	Jalaquduq t.	160
Baliqchi t.	346	Paxtaobod t.	146
Shahrixon t.	255	Izboskan t.	128
Qo'rg'ontepa t.	250	Buloqboshi t.	110
Andijon t.	229	Bo'ston t.	94
Marhamat t.	210	Xonobod sh.	79
Xo'jaobod t.	193	Ulug'nor t.	57


2022- yil 1- aprel holatiga ko'ra faoliyat ko'rsatayotgan xususiy korxonalar soni o'tgan yilning mos davri bilan taqqoslanganda 84,7 foizni tashkil etgan.

Hududlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan xususiy korxonalar sonining o'tgan yilga nisbatan Xo'jaobod tumanida (145,1 foiz), Izboskan tumanida (106,7 foiz), Xonobod shahrida (103,9 foiz) va Ulug'nor tumanida (103,6 foiz) yuqori o'sish sur'atlari kuzatildi.

Yillar kesimida soni




Yillar kesimida o'sish sur'ati



Hududlar kesimida

Andijon sh.	799	Buloqboshi t.	92
Asaka t.	554	Baliqchi t.	59
Andijon t.	295	Xonobod sh.	57
Bo'ston t.	270	Jalaquduq t.	37
Shahrixon t.	231	Paxtaobod t.	35
Qo'rg'ontepa t.	193	Ulug'nor t.	33
Oltinko'l t.	144	Marhamat t.	26
Izboskan t.	98	Xo'jaobod t.	11

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida




2022- yil 1- aprel holatiga yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tib, faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 2 934 tani yoki ro'yxatdan o'tganlarning 92,3 foizini tashkil etdi. O'tgan yilga nisbatan faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar sonining o'sishi 109,2 foizni tashkil etdi.

Oilaviy korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish (127,8 foiz), qurilish (126,3 foiz), tashish va saqlash (118,5 foiz), savdo (113,0 foiz) hamda sanoat (109,7 foiz) sohalarida eng yuqori o'sish kuzatilgan bo'lib, hududlar kesimida esa Qo'rg'ontepa (126,1 %), Baliqchi (122,9 %), Shahrixon (122,2 %), Andijon (120,9 %), Paxtaobod (116,7 %) va Bo'ston (112,5 %) tumanlarida o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish kuzatilgan.


Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumot

2022- yil 1- aprel holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni



Yillar kesimida o'sish sur'ati



2022- yil 1- aprel holatiga ko'ra viloyatimizda xorijiy kapital ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni 376 tani tashkil etdi. O'tgan yilga nisbatan ularning soni 104,7 foizga, ya'ni 17 donaga ko'paygan.

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida eng yuqori o'sish tashish va saqlash (133,3 foiz), qurilish (131,8 foiz), axborot va aloqa (125,0 foiz) hamda savdo (113,7 foiz) sohalariga to'g'ri kelib, hududlar kesimida esa Qo'rg'ontepa (144,4 foiz), Buloqboshi (138,5 foiz), Asaka (130,0 foiz), Jalaquduq (123,1 foiz), Paxtaobod (112,5 foiz) hamda Oltinko'l (110,5 foiz) tumanlariga to'g'ri keldi.

Hududlar kesimida


Andijon sh.	146
Andijon t.	30
Shahrixon t.	27
Asaka t.	26
Oltinko'l t.	21
Xonobod sh.	20
Buloqboshi t.	18
Jalaquduq t.	16
Marhamat t.	14
Xo'jaobod t.	13
Qo'rg'ontepa t.	13
Paxtaobod t.	9
Baliqchi t.	8
Izboskan t.	6
Bo'ston t.	5
Ulug'nor t.	4

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida

23 Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	205 Sanoat	29 Qurilish
58 Savdo	4 Tashish va saqlash	9 Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar
5 Axborot va aloqa	5 Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	38 Boshqa turlar

2022

2021



Rossiya



AQSH




Germaniya



Xitoy



Turkiya



Janubiy Koreya



Ozərbayjon



Turkmaniston



Tojikiston



Qozog'iston




Qirg'iz R.



boshqalar

O'zbekistonning yangi tashqi siyosatining asosiy xususiyatlari bu ochiqlik, pragmatizm, bashoratga intilish, uzoq muddatli barqaror rivojlanishning ustuvor yo'nalishlariga e'tibor berish, qo'shni davlatlar bilan yaxshi qo'shniçilik munosabatlarini mustahkamlash, xalqaro hamkorlikni beg'araz asosda kengaytirishdir.

Shuningdek, xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalardan 250 tasi qo'shma korxonalar, 126 tasi esa xorijiy korxonalar hisobiga to'g'ri keladi.



Qo'shma korxonalar

Xorijiy korxonalar

So'nggi yillarda O'zbekiston iqtisodiyot jadal o'zgartirishni boshdan kechirdi va xalqaro hamjamiyatda ochiqlik, innovatsiya va biznes sarmoyaviy to'siqlarni bartaraf etishda qat'iyluk timsollaridan biri sifatida tobora ko'proq e'tirof etilmoqda. Demak, xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar sonining ko'payishi, avvalambor, mamlakatdagi siyosiy barqarorlik va investitsiya faoliyatining huquqiy asoslari takomillashtirilgani bilan bog'liq.

Korxona va tashkilotlarning yagona davlat registri – axborot-ma'lumotnoma tusidagi, vaqti-vaqti bilan yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan, avtomatlashtirilgan tizim hisoblanadi hamda yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxona va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi.

Ro'yxatga olingan – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrda mavjud bo'lgan yuridik shaxslar hisoblanadi (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

Faoliyat ko'rsatayotgan – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda davlat statistika organlariga moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslar hisoblanadi.


Yangi tashkil etilgan – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslar hisoblanadi.

Yuridik shaxslarning faollik darajasi – ma'lum bir davrda faoliyat ko'rsatmayotgan yuridik shaxslarning jami ro'yxatdan o'tgan yuridik shaxslarga nisbatining foizdagi ifodasi.

Kichik korxona va mikrofirmalar – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016- yil 24- avgustdagi "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 275- son qarorining 1- ilovasiga muvofiq, kichik tadbirkorlik subyektlariga tegishli bo'lgan korxonalar va tashkilotlar.

Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar – norezidentlar ishtirokidagi korxonalar, xorijiy yuridik shaxslar (xorijiy firmalarning filiallari va bo'limlari), korxonaning ustav fondida chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar ishtirok etgan korxonalar.

Ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi ma'lumotlar bazasi asosida 2022- yil 1- aprel holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) shakllantirildi.



Tashqi foydalanuvchilar, bevosita Davlat statistika qo'mitasining www.stat.uz rasmiy saytida real vaqt rejimida, so'ralayotgan yuridik shaxsning (STIR) kodini kiritib, axborotlarni bepul olishlari mumkinligi belgilab qo'yilgan.

**Andijon viloyati statistika
boshqarmasi Statistik
registrlarni yuritish bo'limi
Tel.: 74 228-29-74**

